

**MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI INVESTITSION
LOYIHALARINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI
VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Ibragimov. A.T.

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Investitsiya loyihalarini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashuvchanligini ta'minlash maqsadida ularni ko'p komponentli qilib tayyorlash iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi. Ushbu holat esa, investitsion loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan samaradorligini baholashda nafaqat an'anaviy usullardan foydalanishgina emas, balki, kompyuter texnologiyalariga asoslangan dasturli baholash usullarini ishlab chiqishni, turli matematik modellarni yaratishni taqazo etmoqda.

Kalit so'zlar: *Mintaqalarda tadbirkorlik sub'ektlari, Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, intellektual salohiyat, resurs, Investitsiya, iste'moldagi cheklov, iste'molchi tanlovi, texnika va texnologiyalarni yangilash.*

Shuni ta'kidlash joizki, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davrida mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, investorlarga teng sharoitlar yaratish orqali iqtisodiyotimizga mahalliy hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qator ijobiy ko'rsatkichlarga erishilmoqda.

Respublika sanoatini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga va eksport salohiyatini o'sti rishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish Respublika sanoatini rivojlantirishning asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilab olingan edi:

- tizim hosil qiluvchi tarmoqlarni va umuman sanoatni rivojlantirishning aniq, chuqur va har tomonlama puxta o'ylangan uzoq muddatli istiqbollarni ishlab chiqish, shu asosda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish;

- mahalliy sanoat mahsulotining raqobatbardoshligini oshirish, Respublika sanoati va umuman iqtisodiyotini rivojlantirishning jahon kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga bog'liqligini kamaytirish maqsadida normativ ko'rsatkichlar va tariflarning barqarorligini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining jahon mehnat taqsimotidagi o'rni va roli yuk-salib borishini ta'minlaydigan energetika, neft-gaz-kimyo, kimyo, to'qimachilik va yengil sanoat, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmasevtika kabi ustuvor tarmoqlarni ildam rivojlantirishga qaratilgan sanoatdagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada

chuqurlashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatli va chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, jahon bozorida doimiy xaridorgir bo'lgan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish;

– sanoat korxonalarini keng miqyosda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni eng zamonaviy yuqori texnologik uskunalardan bilan jihozlash, sanoat tarmoqlarida zamonaviy ilmiy yutuqlar va ilg'or innovatsiya texnologiyalarini jadal tatbiq etish, sanoat uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish;

– ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mahalliy xom ashyoni chuqur va sifatli qayta ishlash negizida eksport salohiyatining barqaror o'sib borishini, eksportga mo'ljallangan raqobatdosh sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ularni sotish bozorlari kengaytirilishini ta'minlash;

– ichki sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarish mahalliyashtirilishini yanada rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, sanoat korxonalarini mamlakatning barcha mintaqalarida joylashtirish va shu asosda import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilishini, yangi ish joylari yaratilishi hamda aholining ish bilan bandligi o'sishini, odamlarning daromadlari va turmush darajasi yanada oshib borishini ta'minlash;

– mehnat unumdorligini o'stirish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini izchil pasaytirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish, nobudgarchiliklar va unumsiz sarfxarajatlarni bartaraf etish hisobiga sanoat ishlab chiqarish samaradorligini muttasil oshirib borish;

– sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda uning tashqi bozordagi raqobatdoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat standartlari va texnik reglamentlarni tizimli tarzda tatbiq etish.

Ushbu vazifalarni samarali va yuqori sur'atlarda amalga oshirish uchun, avvalo, investitsiya mablag'lari va ulardan maqsadli foydalanish bo'yicha ishlarni to'g'ri hal etish, o'z vaqtida oqilona qarorlar qabul qilish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini inobatga olgan holda mablag'larni sarflash lozim bo'ladi.

Mintaqalarda tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy resurslar tanqisligini bartaraf etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish uchun investitsiya muhitini yaxshi shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Ma'lumki, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo'jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko'proq foyda va qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi. Bu qoidadan chetga chiqish resurslarni yo'qotish, jamiyatning ilgarigi va hozirgi mehnatini yo'qqa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni

zamonaviylashtirish va tashkiliy texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba'zan tadbirkorlar tomonidan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag'lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab qiladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda tadbirkorlik sub'ektlari ikkita vazifani hal qilishlari lozim:

birinchisi–kapital quyilmalarning qoplanish muddati va daromadliligi nuqtai nazaridan eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;

ikkinchisi–mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

Birinchi vazifaning yechimi tadbirkor tomonidan mos keluvchi marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni ko'zda tutib, bu tadqiqot davomida talab va undan kelib chiquvchi taklif, bozor segmentatsiyasi, bahoni shakllantirish strategiyasi, moliyalashtirish manbalari va boshqalar aniqlanishi lozim. Investitsion loyihani muqobillik asosida tanlagandan so'ng birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni, texnik va boshqa qarorlarni, jumladan, muhandislik ta'minoti, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Investitsion loyihani tayyorlash va shunga mos ravishda investitsiyalar samaradorligini baholash zarurati ko'p hollarda yangi korxona, sexlar qurish yoki mavjud ishlab chiqarishni qayta tiklash va kengaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi nafaqat makonda, ya'ni ma'lum bir mintaqada, yer maydonida, balki vaqtda amalga oshirilishi sababli, vaqt muddati loyihani amalga oshirish, jumladan, korxonani tashkil etish (qayta tiklash, kengaytirish) hamda ekspluatatsiya qilish va tugatish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi:

1) Sof diskontlangan daromad (SDD) – butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig'indisining boshlang'ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$SDD = \sum_{t=0}^T (H_t + X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu yerda:

N_t – hisob-kitoblarning t -qadamida erishiluvchi natijalar;

X_t – huddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

T – hisob-kitoblarning vaqt muddati;

Ye – diskont normasi.

Agar investitsion loyihaning SDD miqdori ijobiy bo'lsa, u holda loyiha samarali, ya'ni investitsiya mablag'lari darajasining qabul qilingan diskont normasini ta'minlovchi hisoblanadi.

Xarajatlar va ularning natijalari miqdorini keltirish ularni *diskontlash koeffitsienti* (d_t) ga kupaytirish asosida amalga oshirilib, bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$1 \quad d_t = \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu yerda:

t – natijalarni olish (xarajatlarni amalga oshirish) davridan taqqoslash davrigacha bo‘lgan muddat bo‘lib, yillarda o‘lchanadi.

Diskont normasi (Ye) – boshqa investorlar o‘z mablag‘larini xuddi shu turdagi loyihalarni amalga oshirish uchun kiritishga rozi bo‘luvchi, kapitalning daromadlilik koeffitsienti (daromad miqdorining kapital quyilmalarga nisbati).

Agar diskont normasi vaqt davomida o‘zgaradigan bo‘lsa, diskont koeffitsienti (d_t) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$d_t = \frac{1}{\prod_{k=1}^t (1+Ye_k)}$$

Bu yerda:

Ye_k – k -yildagi diskont normasi;

t – hisobgaolinuvchivaqtmuddati, yil.

Investitsion loyihalarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashda mahsulot va iste‘mol resurslarining bazis, bashorat qilinuvchi, jahon va hisobiy baholaridan foydalaniladi.

2) Investitsiyalarning daromadlilik indeksi (ID) – keltirilgan samaraning investitsiyalar miqdoriga (K) nisbati bo‘lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi

$$ID = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Agardaromadlilikindeksibirgategyokiundankattabo‘lsa, investitsionloyihasarali, aks’holdaesasamarasizhisoblanadi.

3) Ichki daromadlilik normasi (IDN) – keltirilgan samara miqdori keltirilgan investitsiya miqdoriga teng bulgan holdagi diskont normasi (Ye_{ich}), ya’ni Ye_{ich} (IDN) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$\sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E_{ich})^t} = \sum_{t=0}^T \left(\frac{K_t}{(1+E_{ich})^t} \right)$$

Ushbu formula asosida aniqlangan daromadlilik normasi miqdori investorning kapitalga talab qiluvchi daromad miqdori bilan taqqoslanadi. Agar IDN talab qilinuvchi daromad normasiga teng yoki undan katta bo‘lsa, u holda loyiha samarali hisoblanadi.

4) Investitsiyalarning qoplanish muddati (T_i) – investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo‘lgan minimal vaqt muddati. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_i = \frac{I_s}{P_m}$$

Bu yerda:

I_s – sof investitsiyalar;

P_m – loyiha keltiruvchi urtacha yillik pul mablag‘lari oqimi, so‘m.

Shu bilan birga qoplanish muddati loyihaning daromadlilik ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Shu sababli amaliyotda investitsiyalar birlamchi kapital (qo'yilma)ga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichi orqali ko'rib chiqiladi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D_i = \frac{M_n}{K} \times 100$$

Bu yerda:

D_u – investitsiyalar daromadi, % da;

M_n – soliqlar to'langandan so'ng qolgan foyda, so'm;

K – investitsiyalar (boshlang'ich).

U yoki bu investitsion loyihani tanlash to'g'risida qaror qabul qilishda tadbirkorlar quyidagi savollarga javob berishi lozim:

- * ishlab chiqarishdagi bugungi holat qancha davom etishi mumkin va bozorda mahsulotga (ish, xizmatga) bo'lgan talab qanday?;
- * kapital kiritish uchun imkoniyatlar qanday?;
- * raqobatchilik faoliyati qanday?;
- * qanday muvaffaqiyat omillari mavjud?;
- * yangi bozorga kirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud?

Iqtisodiy samaradorlikni baholashning *ikkinchi holatida*, ya'ni mablag'larni mavjud ishlab chiqarishga kiritishda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

a) investitsiyalarning har bir so'miga to'g'ri keluvchi qo'shimcha mahsulot quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E = \frac{(YaM_1 - YaM_0)}{I_k}$$

Bu yerda:

E – investitsiyalar samaradorligi;

YaM_0 , YaM_1 – yalpi mahsulot, mos ravishda birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

I_k – qo'shimcha investitsiyalar miqdori.

b) investitsiyalarning har bir so'miga tannarxning pasayishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$E = \frac{Q(TN_0 - TN_1)}{I_k}$$

Bu yerda:

TN_0 , TN_1 – mahsulot birligi tannarxi, mos ravishda, birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

Q – qo'shimcha investitsiyalar kiritilgandan keyingi yillik mahsulot hajmi, natural o'lchov birligi.

v) investitsiyalarning har bir so'miga mahsulot ishlab chiqarishdagi mehnat xarajatlarini qisqartirish:

Bu yerda:

M_0, M_1 – mahsulot birligiga ishlab chiqarishda sarflanuvchi mehnat xarajatlari, mos ravishda qo‘shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so‘ng.

g) investitsiyalarning har bir so‘miga foydani oshirish quyidagi formula bilan aniqlanadi:

Investitsiyalar samaradorligini keltirilgan formulalar asosida (boshqaruv darajasini inobatga olgan holda) aniqlash ishlab chiqarishni rivojlantirishga qancha miqdorda investitsiya kiritilgan va uning natijasi qanday, degan savolga javob beradi, ya’ni u investitsiyalarning mutlaq (absolyut) samaradorligini tavsiflaydi.

Amaliyotda ko‘pincha investitsion qarorlarning turlicha variantlari ko‘ribchilib, ulardan eng maqbulini tanlab olishga harakat qilinadi. Bu maqsadda kapital qo‘yilmalarning solishtirma iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari qo‘llanib, ular quyidagi formula asosida aniqlanadi:

Investitsiya samaradorligini baholashni quyidagi misol yordamida taxlil qilamiz: qishloq ho‘jaligi korxonasi qurilishining smetaga ko‘ra qiymati 145,0 mln. so‘mni tashkil etadi. Qurilishning me‘yoriy muddati – 2,5 yil. Amalda korxonani 2 yilda qurib bitkazish mo‘ljallanmoqda. Uning asosiy fondlari qiymati oshishiga olib kelmaydigan xarajatlar qiymati 4,5 mln so‘mga teng. Samaradorlikning me‘yoriy koeffitsienti – 0,2.

Bunda kichik korxonani muddatidan oldin qurib bitkazishning iqtisodiy samarasi quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{dp} = 0,2 (145,0 - 4,5) * (2,5 - 2) = 14,0 \text{ mln. so‘m.}$$

Investitsiyalar davlat va korxonalarning asosiy fondlarni zamonaviylashtirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ishlab chiqarish potentsialini mustahkamlash yo‘lidagi faoliyatidagi muhim vositadir.

Investitsiyalar qoidaga ko‘ra, amaliyotda mamlakat miqyosida davlat tomonidan, mikroiqtisodiyotda esa korxonalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xo‘jalik sub’ektlari tomonidan amalga oshiriluvchi investitsion siyosat asosida moddiylashtiriladi. Investitsiyalar real, yalpi, moliyaviy va portfel turlariga taqsimlanadi. Real investitsiyalar korxonaning iqtisodiy potensialini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi.

Investitsiyalashning to‘g‘ri tanlangan taktika va strategiyasi korxonalarga ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot chiqarishni fan-texnika taraqqiyoti va bozor talablariga javob beruvchi ko‘rinishga olib kelishga imkon beradi. Korxonaning investitsion siyosati investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda investitsiyalashning eng samarali variantlarini tanlash bilan bog‘liq bo‘ladi. Minimum xarajatlar va maksimum natijalar – investitsiyalar va investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda uslubiy asos hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, investitsiyalarga kapitalning saqlanishi, o‘sishi va daromad olib kelishini ta’minlovchi kapital joylashtirish usuli sifatida ta’rif berish lozim. Investitsiyalar mohiyatiga ko‘ra, resurslarni oqilona sarflash va buning oqibatida natija olishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
2. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
5. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.
6. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
7. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHİYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
8. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOIYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
9. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
10. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O‘RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA’SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.
11. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlantirish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
12. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
13. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.

14. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
15. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
16. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
17. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
18. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
19. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
20. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
21. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
22. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
23. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Gospodarka i Innowacje.*, 53, 205-213.
24. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
25. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 321-325.
26. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). INNOVATIVE MANAGEMENT AS A FACTOR OF SUCCESSFUL DEVELOPMENT OF AN ENTERPRISE. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 315-320.
27. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.
28. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 167-175.

29. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.
30. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJIY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 176-181.
31. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.
32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHIIYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 162-166.
33. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.
34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
35. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
36. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345.